

**MAKTAB, OILA VA MAHALLANING O'ZARO INTEGRATSIYASI**

Sulxonova Madina Safarali qizi

*Shahrisabz Davlat Pedagogika Instituti Pedagogika fakulteti Boshlang'ich
ta'lim yo'nalishi 4-kurs talabasi*

madinasulhonova@gmail.com

Telefon raqam: +9984804811

Annotatsiya: *Ushbu maqolada zamonaviy ta'lim-tarbiya tizimida maktab, oila va mahalla o'rtasidagi integratsiyaning zaruriyati, shakllanishi omillari va samarali hamkorlik yo'llari tahlil qilinadi. Integratsiya jarayonining tarixiy ildizlari, mavjud holati, muammolari va istiqbollari yoritilib, "Oila-Maktab-Mahalla" konsepsiyasi asosida samarali hamkorlikni shakllantirish bo'yicha takliflar bildiriladi. Mavzuga oid ilmiy-nazariy qarashlar, mavjud muammolar hamda ularni hal etish bo'yicha takliflar keltiriladi.*

Kalit so'zlar: *integratsiya, ta'lim, tarbiya, maktab, oila, mahalla, hamkorlik, ijtimoiy tizim, bola shaxsiyati.*

Abstract: *The article analyzes the socio-pedagogical foundations of integration between school, family and neighborhood in the modern education and upbringing system. The historical roots, current state, problems and prospects of the integration process are highlighted, and proposals are made for the formation of effective cooperation based on the concept of "Family-School-Neighborhood".*

Keywords: *integration, education, upbringing, school, family, neighborhood, cooperation, social system, child personality.*

KIRISH

Yangi O'zbekiston sharoitida yosh avlodni barkamol qilib tarbiyalash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilangan. Bu borada asosiy e'tibor ta'lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, uni ijtimoiy institutlar bilan



uyg'unlashtirish, ya'ni maktab, oila va mahalla o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirishga qaratilgan. Chunki bola tarbiyasi faqat maktab yoki faqat oila zimmasiga yuklanadigan mas'uliyat emas, balki jamiyatning har bir a'zosiga tegishli ijtimoiy vazifadir.

Ushbu integratsion yondashuvni chuqur anglash, uni amaliyotda to'g'ri yo'lga qo'yish va tizimlashtirish bugungi kundagi eng dolzarb vazifalardan biridir. Maktab, oila va mahalla bir butun tizim sifatida ishlagan taqdirda, biz ijtimoiy jihatdan yetuk, bilimli, ma'naviyatli avlodni voyaga yetkaza olamiz.

Tarixga nazar solsak, sharq pedagogikasida bola tarbiyasi har doim jamoaviy xarakterga ega bo'lgan. Ota-onalar, ustozlar, mahalla oqsoqollari birgalikda harakat qilgan. Jaded pedagogikasida ham "Tarbiya-jamiyatning ijtimoiy vazifasi" degan g'oya ilgari surilgan. Ushbu tamoyillar bugungi kunda "Oila-Maktab-Mahalla" konsepsiyasida yangi bosqichga ko'tarilmoqda.

Hozirgi zamonda esa bu yondashuv institutsional integratsiya, ya'ni mustaqil faoliyat yurituvchi ijtimoiy institutlarning yagona tizimga birlashtirilishi orqali amalga oshirilmoqda. Bu tizimda har bir institut o'z funksiyasini bajaradi, biroq ularning faoliyati yagona maqsad – barkamol, shaxs tarbiyasi sari yo'naltiriladi.

Oila- har qanday shaxsning ilk tarbiyachisi, dastlabki ijtimoiy tajriba maktabi, mehr-oqibat va qadriyatlar manbai hisoblanadi. Bolaning характери, fe'l-atvori, dunyoqarishi aynan oilada shakllana boshlaydi. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, bolaning kelgusidagi axloqiy qiyofasi, ijtimoiy moslashuvi, o'quvdagi yutuqlari ko'p jihatdan oiladagi muhitga bog'liq. Ammo bugungi kunda ayrim oilalarda:

- Farzand tarbiyasiga befarqlik;
- Migratsiya sababli bolalarning buvisiga yoki begonalarga topshirilishi;
- Ajralishlar va ijtimoiy muammolar kuchayib borayotganligi kuzatilmoqda.

Shu sababli maktab va mahalla oilaga pedagogic-psixologik ko'mak berishi kerak.



Maktab – faqat bilim beruvchi emas, balki bolaning ijtimoiylashuvi, shaxsiyati shakllanishi, hayotga tayyorlanishi uchun eng muhim bosqichdir. Ammo maktab yolg'iz bu yukni ko'tara olmaydi. O'quvchi maktabda olgan tarbiyani oilada qo'llay olmasa, yoki mahalladagi muhit bunga zid bo'lsa – natija bo'lmaydi.

Maktabning vazifasi:

- Bola shaxsiyatini sog'lom shakllantirish:
- Ijtimoiy hamkorlikni rivojlantirish:
- Oilaviy va mahalliy muhitni ta'lim jarayoniga jalb etish.
- Zamonaviy maktablar endi faqat dars o'qitadigan joy emas, balki ijtimoiy markazga aylanishi zarur.

Mahalla – milliy an'analar, urf-odatlar, qadriyatlar asosida bolani ijtimoiy hayotga tayyorlaydigan, o'ziga xos nazorat tizmi. Mahallaning roli quyidagilardan iborat:

- Oila va maktabni birlashtiruvchi ko'priklarni bo'lish;
- Tarbiyaviy muhit yaratish (bayramlar, tadbirlar, nazorat):
- Ijtimoiy himoya va psixologik yordam.

Mahalla orqali oilaviy nizolar, bolalarning yolg'iz qolishi, ijtimoiy xavfli holatlar oldini olish mumkin. Ammo hozirda ba'zi mahallalarda faollik yo'qolgan, faqat hujjat yuritish darajasidagina qolmoqda.

“Oila-maktab-mahalla” konsepsiyasi asosida quyidagi amaliy modelni joriy etish mumkin:

1. Yagona platforma – har bir bola uchun yagona elektron portfel (oilaviy, maktab va mahalliy ma'lumotlar):

2. Uch tomonlama maslahat kengashlari – har chorakda bola atrofidagi muammolarni birgalikda muhokama qilish:

3. Mahalla-maktab psixologik guruhi – ijtimoiy xavfli holatlarga birgalikda aralashish:

4. Maktabda “Mahalla burchagi” – mahalla tarixi, odob-axloq namunalarini targ'ib qiluvchi makon:

5. Oila maktabi – ota-onalar uchun pedagogik savodxonlik mashg'ulotlari.



Mavjud muammolar va ularni hal qilish yo'llari:

- Ota-onalarning befarqligi – yechim: ota-onalar uchun majburiy tarbiyaviy seminarlar;
- Mahalla faollarining sustligi – yechim: faol oilalarni rag'batlantirish, reyting tizimi;
- Maktabdagi tashkiliy kamchiliklar – yechim: direktor o'rinbosarining faqat integratsiyaga mas'ul lavozimini joriy qilish.

Maktab, oila va mahallaning o'zaro integratsiyasi – mustahkam fuqarolik jamiyati asosidir. Bu tizim orqali biz:

- Yoshlarda sog'lom dunyoqarash va ijtimoiy mas'uliyat hissini shakllantiramiz;
- Jamiyatda jinoyatchilik, axloqiy buzilishlar, beparvolik kabi illatlarni kamaytiramiz;
- Yagona maqsad sari harakat qiluvchi ijtimoiy mexanizmni yaratamiz.

Bu borada takliflar:

1. Har bir hududda "Oila-Maktab-Mahalla" markazlarini ochish;
2. Har bir maktabda mahalla bilan shartnoma asosida ishlovchi curator tayinlash;
3. "Yilning eng yaxshi hamkor mahallasi" tanlovini tashkil etish;
4. Oila va mahallada faoliyatini ta'lim reytingiga kiritish.
- 5.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Anvarovna, Umarova Dilafruz. "INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIMDA O'YIN TEXNOLOGIYALARI." MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TE Umarova,
2. Dilafruz Anvarovna. "IMPROVING THE METHODOLOGY OF SOCIO-EMOTIONAL DEVELOPMENT OF STUDENTS IN THE PROCESS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION IN PRIMARY GRADES." Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal 5.03 (2024): 394-403. SOLUTIONS 1.2 (2024): 23-25.



3. Anvarovna, Umarova Dilafruz. "BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIDA IJTIMOIIY USTANOVKALARNI RIVOJLANTIRISH TEXNOLOGIYASI." TADQIQOTLAR 31.4 (2024): 3-6.

4. Umarova, Dilafruz Anvarovna. "BOSHLANG 'ICH SINFLARDA TEXNOLOGIK TA'LIM JARAYONIDA O 'QUVCHILARNI IJTIMOIIY-HISSIY RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH." GOLDEN BRAIN 1.30 (2023): 46-49.